O‘QUVCHILARDA TANQIDIY FIKRLASHNI RIVOJLANTIRISHDA PEDAGOGIK YONDASHUVLAR (OLIY TA’LIM TIZIMI MISOLIDA)

Rasulova Umidaxon Po’latjon qizi
Toshkent Ijtimoiy Innovatsiya universiteti, Magistrant
Ilmiy rahbar: Pulatova Nodirabegim

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada zamonaviy oliy ta’lim tizimida talabalarning tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini shakllantirish va rivojlantirishning pedagogik asoslari hamda samarali yondashuvlari tadqiq etilgan. Ta’lim jarayonida interfaol metodlar, muammoli ta’lim va "Keys-stadi" (Case study) usullarining talabalar mustaqil fikrlashiga ta’siri tahlil qilingan. Tadqiqot natijasida oliy ta'lim muassasalarida talabalarda axborotni filtrlash, tahlil qilish va xulosa chiqarish ko‘nikmalarini tizimli rivojlantirish bo‘yicha pedagogik tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: tanqidiy fikrlash, pedagogik yondashuv, oliy ta'lim, interfaol metodlar, muammoli ta’lim, Keys-stadi, mustaqil fikrlash.

ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ПОДХОДЫ К РАЗВИТИЮ КРИТИЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ У УЧАЩИХСЯ (НА ПРИМЕРЕ СИСТЕМЫ ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ)

АННОТАЦИЯ

В данной статье исследуются педагогические основы и эффективные подходы к формированию и развитию навыков критического мышления студентов в современной системе высшего образования. Анализируется влияние интерактивных методов, проблемного обучения и метода "Кейс-стади" (Case study) на самостоятельное мышление учащихся. В результате исследования разработаны педагогические рекомендации по систематическому развитию у студентов навыков фильтрации, анализа информации и формулирования выводов.

Ключевые слова: критическое мышление, педагогический подход, высшее образование, интерактивные методы, проблемное обучение, Кейс-стади, самостоятельное мышление.

PEDAGOGICAL APPROACHES TO DEVELOPING CRITICAL THINKING IN STUDENTS (IN THE CASE OF THE HIGHER EDUCATION SYSTEM)

ABSTRACT

This article examines the pedagogical foundations and effective approaches to the formation and development of critical thinking skills of students in the modern higher education system. The impact of interactive methods, problem-based learning, and the Case study method on students' independent thinking is analyzed. As a result of the research, pedagogical recommendations have been developed for the systematic development of students' skills in filtering, analyzing information, and making conclusions.

Keywords: critical thinking, pedagogical approach, higher education, interactive methods, problem-based learning, Case study, independent thinking.

KIRISH (INTRODUCTION)

Bugungi globallashuv va axborot texnologiyalari jadal rivojlanayotgan davrda oliy ta’lim tizimi oldiga nafaqat tayyor bilimlarni o‘zlashtirgan, balki mustaqil va ijodiy fikrlay oladigan mutaxassislarni tayyorlash vazifasi qo‘yilmoqda. Ayniqsa, oliy ta’lim muassasalari talabalarida axborot oqimini to‘g‘ri tahlil qilish, voqelikka xolis baho berish va muammoli vaziyatlarda eng maqbul yechimni topish ko‘nikmalarini shakllantirish muayyan ahamiyat kasb etadi. Bu jarayonda ta’lim oluvchilarda tanqidiy fikrlashni (critical thinking) rivojlantirish pedagogik tadqiqotlarning diqqat markazida turibdi. Oliy ta'lim pedagogikasida talabalarning fikrlash doirasini kengaytirish uchun an’anaviy ma’ruza usullaridan voz kechib, interfaol va muammoli ta’lim texnologiyalarini tizimli ravishda dars jarayoniga tatbiq etish talab etiladi. Ushbu maqolada oliy ta'lim bosqichida

talabalarning tanqidiy fikrlash faolligini oshirishga xizmak qiladigan eng samarali pedagogik yondashuvlar va ularning amaliy ahamiyati tahlil qilinadi.

METODLAR VA METODOLOGIYA (METHODS)

Tadqiqot jarayonida oliy ta'limda qo'llaniladigan zamonaviy pedagogik texnologiyalar tahlil qilindi. Asosiy metodologik asos sifatida Blum taksonomiyasining yuqori bosqichlari (tahlil, sintez, baholash) hamda muammoli ta'lim tamoyillari olimpiada darajasida olindi. Tajriba-sinov ishlari jarayonida talabalar bilan Sokratik so'roq-javob hamda amaliy "Keys-stadi" (Case study) dars o'tish usullaridan foydanildi. Talabalarning dars boshidagi va yakunidagi mustaqil fikrlash ko'rsatkichlari test hamda amaliy topshiriqlar yordamida qiyosiy o'rganildi. Metodologiyaning asosiy maqsadi talabalarga muammoning yagona to'g'ri yechimi borligi haqidagi qarashdan voz kechishga va muqobil variantlarni tahlil qilishga o'rgatishdan iborat bo'ldi.

NATIJALAR (RESULTS)

Pedagogik yondashuvlarning amaliyotga tatbiq etilishi natijasida an'anaviy ma'ruza darslariga nisbatan interfaol va muammoli darslarda talabalarning mavzuni o'zlashtirish va unga nisbatan shaxsiy munosabat bildirish faolligi sezilarli darajada oshdi. Keys-stadi metodi qo'llanilganda talabalarning 72 foizi muammoga bir tomonlama emas, balki bir nechta muqobil variantlar orqali yechim taklif qila olishdi. Sokratik savollar tizimi esa talabalarda axborotning ishonchliligini tekshirish ko'nikmasini 25 foizga oshirganligini ko'rsatdi. Olingan natijalar talabalarning nazariy bilimlarni amaliy vaziyatlar bilan oson bog'layotganini isbotladi.

MUNOZARA VA XULOSALAR (DISCUSSION AND CONCLUSION)

Oliy ta'lim talabalarida tanqidiy fikrlashni rivojlantirish – bu shunchaki individual qobiliyat emas, balki maqsadli tashkil etilgan pedagogik jarayon mahsulidir. An'anaviy yodlashga asoslangan ta'lim yondashuvlari bugungi kun talabi darajasidagi kreativ mutaxassisni shakllantira olmaydi. Tadqiqot natijalariga ko'ra quyidagi tavsiyalar ilgari suriladi:

1. Oliy ta'lim o'quv dasturlariga muammoli vaziyatlarni tahlil qiluvchi keyslarni ko'proq kiritish lozim.

2. Seminar darslarida talabalarni bahslashishga va shaxsiy gipotezalarni himoya qilishga o'rgatuvchi debat usullarini ko'paytirish zarur.

3. Baholash tizimida talabaning mustaqil fikri va ijodiy yondashuviga alohida ball ajratish tavsiya etiladi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI (REFERENCES)

1. Ishmuhamedov R., Abduqodirov A., Pardaev A. Ta’limda innovatsion texnologiyalar. – T.: Iste’dod, 2008.

2. Facione, P. A. Critical Thinking: What It Is and Why It Counts. Insight Assessment, 2011.

3. Pulatova N. Oliy ta'limda innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanish metodikasi. – T., 2022.